

OZIQ-OVQAT SANOATIDA YUQORI TEXNOLOGIYALI ISHLAB CHIQUARISHNI RIVOJLANTIRISHDA INTELLEKTUAL MULKNI TIJORATLASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Tursunov Abduxamid Shokirovich

Termiz davlat muhandislik va
agrotexnologiyalar universiteti
“Tarmoqlar iqtisodiyoti” kafedrası
assistent o‘qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur tezisda oziq-ovqat sanoatida yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni rivojlantirishda intellektual mulkni tijoratlashtirish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari ilmiy jihatdan yoritildi. Tadqiqot davomida patentlash, foydali model, tovar belgisi, litsenziyalash va texnologiyalar transferining iqtisodiy ahamiyati rasmiy hamda xalqaro manbalar asosida tahlil qilindi. Olingan natijalar intellektual mulk obyektlaridan samarali foydalanish innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish, qo‘shilgan qiymatni oshirish va oziq-ovqat sanoatining raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qilganini tasdiqladi.

Kalit so‘zlar: intellektual mulk, oziq-ovqat sanoati, patent, foydali model, tijoratlashtirish, texnologiyalar transferi, innovatsiyalar, raqobatbardoshlik.

Аннотация

В тезисе были научно рассмотрены вопросы совершенствования механизмов коммерциализации интеллектуальной собственности при развитии высокотехнологичного производства в пищевой промышленности. В ходе исследования на основе официальных и международных источников были проанализированы значение патентования, полезных моделей, товарных знаков, лицензирования и трансфера технологий. Полученные результаты подтвердили, что эффективное использование объектов интеллектуальной собственности способствовало активизации инновационной деятельности, увеличению добавленной стоимости и укреплению конкурентоспособности предприятий пищевой промышленности.

Ключевые слова: интеллектуальная собственность, пищевая промышленность, патент, полезная модель, коммерциализация, трансфер технологий, инновации, конкурентоспособность.

Abstract

This thesis examined the improvement of intellectual property commercialization mechanisms for the development of high-tech production in the food industry. The study analyzed the economic significance of patents, utility models, trademarks, licensing, and technology transfer using official and international sources. The findings demonstrated that the effective commercialization of intellectual property promoted innovation, increased value added, and strengthened the competitiveness of food industry enterprises. The study confirmed the practical importance of intellectual property management in supporting sustainable technological and industrial development.

Keywords: intellectual property, food industry, patent, utility model, commercialization, technology transfer, innovation, competitiveness.

KIRISH

O'zbekiston sanoatining tarkibiy manzarasi oziq-ovqat yo'nalishini korxonalar soni bo'yicha yetakchi tarmoqqa aylantirdi: 2025-yil 1-noyabr holatiga ko'ra respublikada faoliyat yuritayotgan 58,6 mingta sanoat korxonasidan 11,7 mingtasi, ya'ni 20,0 foizi aynan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashdi, tarmoqning ishlab chiqaruvchi sanoat hajmidagi ulushi esa 19,3 foizni tashkil etdi [1]. Ayni vaqtda o'sha davrda ishlab chiqaruvchi sanoat tarkibida yuqori texnologiyali segmentning ulushi 1,1 foiz darajasida qayd etildi [1]. Ushbu ikki ko'rsatkichning qiyosi amaliy vazifani aniq shakllantirishga imkon berdi: tarmoq keng ishlab chiqarish bazasiga ega bo'lgani holda, uning texnologik jadalligini oshirish uchun ilmiy natijalarni bozor mahsulotiga aylantiruvchi ishonchli mexanizmlar zarur bo'ldi.

Amaliy ehtiyoj korxona darajasida quyidagicha namoyon bo'ldi. Qayta ishlash korxonasi yangi retseptura, konservatsiya rejimi, quritish yoki fermentatsiya usulini o'zlashtirganda, u odatda uch xil savolga duch keldi: yaratilgan yechimni qanday huquqiy shaklda mustahkamlash, uning qiymatini qanday o'lchash va uni qanday shartnoma orqali daromadga aylantirish. Aynan shu uch savolga tizimli javob berish intellektual mulkni tijoratlashtirish mexanizmining amaliy mazmunini tashkil etdi.

Davlat siyosati ushbu yo'nalish uchun mustahkam institutsional zamin yaratdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-fevraldagi PF-36-son Farmoni bilan 2024-2028-yillarda oziq-ovqat sanoatini yanada rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi va tarmoqni modernizatsiya qilish, chuqur qayta ishlashni kengaytirish vazifalari belgilandi [2]. Intellektual mulk sohasida esa Prezidentning 2022-yil 26-apreldagi PQ-221-son qarori bilan 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Strategiya qabul qilinib, unda intellektual mulkni mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylantirish, iqtisodiyot tarmoqlariga intellektual faoliyat natijalarini joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish hamda mintaqaviy brendlarni shakllantirish maqsadlari mustahkamlandi [3]. Huquqiy muhofazaning texnik parametrlari "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi Qonun bilan belgilandi; qonun ixtiro, foydali model va sanoat namunasi patentlarining amal qilish tartibi hamda muddatlarini, shu jumladan ularni uzaytirish imkoniyatini nazarda tutdi [4]. Mazkur huquqiy asos oziq-ovqat korxonasiga texnologik yechimni himoyalash uchun bir emas, bir necha muqobil vositani taqdim etdi va tijoratlashtirish strategiyasini variantli qurishga sharoit yaratdi.

Tezisning maqsadi oziq-ovqat sanoatida yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni rivojlantirishga xizmat qiluvchi tijoratlashtirish mexanizmlarining tarkibiy elementlarini aniqlash va ularni takomillashtirish yo'nalishlarini asoslashdan iborat bo'ldi.

ASOSIY QISM

Intellektual mulkni tijoratlashtirish yaxlit jarayon sifatida to'rtta o'zaro bog'liq bosqichda namoyon bo'ldi. Birinchi bosqich - huquqiy muhofaza rejimini tanlash:

oziq-ovqat texnologiyasida ixtiro patenti tarkib va usulni, foydali model qurilma yechimini, sanoat namunasi qadoq va shakl bezagini, tovar belgisi esa bozordagi taniqlilikni himoyaladi. Ikkinchi bosqich - obyektning iqtisodiy qiymatini baholash va uni nomoddiy aktiv sifatida balansga qabul qilish. Uchinchi bosqich - transfer: litsenziya, huquqni to'liq berish, qo'shma korxona yoki franchayzing shakli. To'rtinchi bosqich - bozorga chiqarish va daromad oqimini boshqarish. Zanjirning har bir halqasi keyingisining samaradorligini belgilaganligi sababli, faqat bitta bosqichga e'tibor qaratish umumiy natijani cheklab qo'ydi.

Oziq-ovqat sanoatining o'ziga xosligi ushbu modelga muhim tuzatish kiritdi. Tarmoqda mahsulot yangilanish sikli qisqa, retseptura o'zgarishlari tez, patent olish jarayoni esa nisbatan uzoq kechdi. Milliy patent idorasida patent berish bo'yicha o'rtacha kutish muddati 20 oyni tashkil etdi [5]. Bunday sharoitda korxonalar uchun tezkor va arzon muhofaza vositasi - foydali model instituti alohida amaliy qiymat kasb etdi, chunki u uskuna, qurilma va texnologik jihozdagi yaxshilanishlarni qisqa muddatda mustahkamlashga imkon berdi.

Milliy va xalqaro statistika tarmoqdagi tijoratlashtirish salohiyatini miqdoriy baholashga asos bo'ldi.

1-jadval
Intellectual mulk faolligi va tarmog'idagi ko'rsatkichlari¹

№	Ko'rsatkich	Qiymat	Manba
1	Patentga talabnomalar (2024-yil.), jami	526	[5]
2	Foydali modelga talabnomalar (2024-yil.)	483	[5]
3	Berilgan patentlar (2024-yil.)	305	[5]
4	Amaldagi patentlar	1 255	[5]
5	Tovar belgisiga talabnomalar (2024-y.)	21 106	[5]
6	PCT bo'yicha xalqaro talabnomalar (2024-yil.)	6	[5]
7	Patent berish bo'yicha o'rtacha muddat, oy	20	[5]
8	EPOda "oziq-ovqat kimyosi" yo'nalishi bo'yicha talabnomalar (2024-y.)	2 113	[8]
11	Ishlab chiqaruvchi sanoatda oziq-ovqat, ichimlik va tamaki ulushi (2025-y. yanvar-oktabr), foizda	19,3	[1]
12	Ishlab chiqaruvchi sanoatda yuqori texnologiyali segment ulushi (2025-yil. yanvar-oktabr) foizda	1,1	[1]

1-jadval ma'lumotlari bir necha ijobiy tendensiyaning ochib berdi. Foydali modellar bo'yicha mamlakatning jahon reytingidagi 27-o'rnini patent talabnomalari bo'yicha egallangan mavqedan sezilarli darajada yuqori bo'lib, milliy muhandislik amaliyotining amaliy yechimlarga moyilligini ko'rsatdi [5]. Tovar belgilariga talabnomalarning bir yilda 74 foizga ko'payishi esa brendga asoslangan tijoratlashtirish modelining tarmoqda tez kengayayotganidan dalolat berdi [5]. Oziq-ovqat sanoati uchun bu ikki ko'rsatkich strategik ahamiyatga ega bo'ldi: texnologik yechim foydali model orqali, bozordagi mavqe esa tovar belgisi orqali himoyalanganda, korxona ikki qatlamli himoya konturiga ega bo'ldi.

¹ Manbalar asosida ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Global innovatsiyalar indeksining 2025-yilgi natijalari mamlakat mavqeyining barqaror mustahkamlanganini tasdiqladi: O'zbekiston 139 iqtisodiyot orasida 79-o'ringa ko'tarilib, o'zining eng yaxshi natijasini qayd etdi, mehnat unumdorligi o'sishi bo'yicha 6-o'rinni egalladi hamda to'rtinchi yil ketma-ket rivojlanish darajasidan yuqori natija ko'rsatuvchi iqtisodiyot maqomini saqladi [6]. Reyting tarkibida innovatsion resurslar bo'yicha 69-o'rin va innovatsion natijalar bo'yicha 92-o'rin o'rtasidagi farq esa aynan tijoratlashtirish bosqichining zaxira imkoniyatlarini ko'rsatdi: kirituvchi resurslar chiqish natijalariga to'liq aylanish uchun qo'shimcha institutsional vositalarga ehtiyoj sezdi [7].

Xalqaro tajriba ham shu xulosani mustahkamladi. Yevropa patent idorasida 2024-yilda "oziq-ovqat kimyosi" sohasi bo'yicha 2 113 ta talabnoma qabul qilindi va bu ko'rsatkich boshqa texnologik yo'nalishlarga nisbatan ancha kichik bo'lib qoldi; ayni paytda yevropalik arizachilar tomonidan berilgan talabnomalarning 22 foizi kichik va o'rta korxonalar hamda yakka ixtirochilar hissasiga to'g'ri keldi [8]. Bu tarkib oziq-ovqat sanoatida patent faolligining yirik korporatsiyalar imtiyozi emas, balki kichik korxonalar uchun ham real vosita ekanini ko'rsatdi. Jahon miqyosida patent talabnomalari 3,6 millionga, foydali modellar bo'yicha talabnomalar esa 3,1 millionga yetdi - foydali model instituti xalqaro amaliyotda patent bilan solishtirarli hajmga ega bo'lgan mustaqil tijoratlashtirish yo'lagini shakllantirdi [9].

Tijoratlashtirish zanjirining ilmiy qutbini mustahkamlash yo'nalishida institutsional qadamlar qo'yildi. Prezidentning 2023-yil 26-yanvardagi PQ-22-son qarori bilan Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti tashkil etilib, uning zimmasiga ta'lim va qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalarni, oziq-ovqat sanoatida yangi mexanizmlarni keng joriy etish hamda yetakchi xorijiy ilmiy markazlar bilan institutsional hamkorlikni yo'lga qo'yish vazifalari yuklatildi [10]. Ushbu tuzilma ilmiy natija bilan sanoat buyurtmachisi o'rtasidagi masofani qisqartiruvchi bog'lovchi bo'g'in rolini bajarish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Korxona darajasida esa tijoratlashtirishning eng amaliy vositasi litsenziya shartnomasi bo'lib qoldi. Amaldagi 1 255 ta patent [5] potensial litsenziya bazasini tashkil etdi; ularning bozor aylanmasiga jalb etilishi qo'shimcha kapital qo'yilmasiz daromad oqimini shakllantirishga xizmat qildi. Qonunchilik patent egasiga muhofaza muddatini uzaytirish huquqini bergani [4] uzoq muddatli litsenziya rejalarini tuzishga huquqiy barqarorlik qo'shdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlil oziq-ovqat sanoatining keng ishlab chiqarish bazasi bilan intellektual mulk institutlarining kengayib borayotgan imkoniyatlari o'rtasida mustahkam bog'lanish shakllanganini ko'rsatdi. Tarmoq korxonalar soni bo'yicha sanoatning beshdan bir qismini egallagani, foydali model va tovar belgisi bo'yicha faollik yuqori sur'atlarda o'sgani hamda mamlakat innovatsion reytingda barqaror yuqoriga siljigani [6] tijoratlashtirish mexanizmini takomillashtirish uchun qulay boshlang'ich sharoit yaratdi.

Tahlillardan kelib chiqib quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Ikki qatlamli himoya modelini joriy etish. Oziq-ovqat korxonalarida texnologik yechimni foydali model, bozor mavqeyini esa tovar belgisi orqali bir vaqtda himoyalash amaliyotini standart korporativ tartibga aylantirish maqsadga muvofiq bo'ldi; milliy statistikada ikki institut bo'yicha ham yuqori faollik qayd etilgani [5] bu modelning amaliy bajarilishini ta'minladi.

2. Nomoddiy aktivlarni baholash va balansga qabul qilish tartibini soddalashtirish. Patent va foydali modelning buxgalteriya hisobida aks etishi korxonaga uni garov, ulush yoki litsenziya predmeti sifatida ishlatish imkonini bergani sababli, tarmoq uchun soddalashtirilgan baholash uslubini tavsiya etish o'rinli bo'ldi.

3. Ilmiy-sanoat konsorsiumlarini shakllantirish. Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti [10] hamda qayta ishlash korxonalari o'rtasida buyurtma tadqiqot va natijaga hamkorlikda egalik qilish shartnomalari asosida doimiy platformalar tashkil etish innovatsion natijalar sub-indeksidagi zaxirani [7] amaliy o'sishga aylantirishga xizmat qildi.

4. Litsenziya bozorini raqamli infratuzilma bilan qo'llab-quvvatlash. Amaldagi patentlar [5] bo'yicha ochiq litsenziya takliflarini joylashtiruvchi tarmoq platformasini yo'lga qo'yish huquq egasi bilan ishlab chiqaruvchi o'rtasidagi qidiruv xarajatlarini kamaytirdi.

5. Kichik korxonalarni patent faoliyatiga jalb qilish. Yevropa amaliyotida kichik va o'rta korxonalar hamda yakka ixtirochilar talabnomalarning 22 foizini bergani [8] milliy sharoitda ham kichik biznesga yo'naltirilgan patent maslahat xizmatini rivojlantirish istiqbolli ekanini ko'rsatdi.

6. Chuqur qayta ishlash loyihalarini intellektual mulk komponenti bilan bog'lash. 2024-2028-yillarga mo'ljallangan tarmoq dasturi [2] doirasidagi investitsiya loyihalarida texnologik yechimning huquqiy muhofaza rejasini loyiha hujjatlarining ajralmas qismi sifatida shakllantirish tijoratlashtirish zanjirini boshlang'ich bosqichdayoq yaxlitlashtirdi.

Ushbu yo'nalishlarning izchil amalga oshirilishi Intellektual mulk sohasini rivojlantirish strategiyasida [3] belgilangan maqsadlarga erishishga hamda oziq-ovqat sanoatida yuqori texnologiyali segmentning [1] barqaror kengayishiga xizmat qilish salohiyatiga ega bo'ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari-
<https://stat.uz/>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-fevraldagi PF-36-son "Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni - <https://lex.uz/uz/docs/-6802687>

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-apreldagi PQ-221-son "Intellektual mulk sohasini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori - <https://www.lex.uz/uz/docs/-5987120>

4. O'zbekiston Respublikasining "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi Qonuni (amaldagi tahrir). - <https://lex.uz/docs/-76671>

5. World Intellectual Property Organization. Statistical Country Profile: Uzbekistan. - <https://www.wipo.int/edocs/statistics-country-profile/en/uz.pdf>
6. World Intellectual Property Organization. Uzbekistan Ranking in the Global Innovation Index 2025. - <https://www.wipo.int/edocs/gii-ranking/2025/uz.pdf>
7. World Intellectual Property Organization. Global Innovation Index 2025: GII 2025 Results. - <https://www.wipo.int/web-publications/global-innovation-index-2025/en/gii-2025-results.html>
8. HGF. IP Ingredients: Why are food tech patent applications in Europe falling? (EPO Patent Index 2024 ma'lumotlari asosida). - <https://www.hgf.com/knowledge-hub/blog-posts/ip-ingredients-why-are-food-tech-patent-applications-in-europe-falling/>
9. World Intellectual Property Organization. WIPO IP Facts and Figures 2024. - <https://www.wipo.int/edocs/pubdocs/en/wipo-pub-943-2024-en-wipo-ip-facts-and-figures-2024.pdf>
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-yanvardagi PQ-22-son "Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro institutini tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori - <https://lex.uz/uz/docs/-6372478>
11. Al Doghan M. A., Boltaeva Z. Performing Arts and Audience Satisfaction: Role of Artistic and Socio-Cultural Value to Achieve Re-watch Intention //Rita Revista Indexada de Textos Academicos. - 2025. <https://redfundamentos.com/menu-script/index.php/rita/article/view/467>



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-YIL, 16- OKTABR, MAXSUS SON, IV-V-SHO'BALAR

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi** rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlaro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**